



CHAKANA VA ULGURJI SAVDO RIVOJI NAVOIY VILOYATI MISOLIDA

Navoiy innovatsiyalar universiteti
Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
fakulteti talabasi Alisherova E'zoza,

Navoiy innovatsiyalar universiteti
"Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari" kafedrasida katta o'qituvchi
Hamrayev Bahodir Baxtiyarovich

Annotatsiya: Ushbu maqola Navoiy viloyati misolida chakana va ulgurji savdo sohalarining rivojlanish holati hamda o'sish dinamikasi 2021–2025 yillar oralig'ida tahlil qilindi. Tadqiqot davomida viloyat iqtisodiyotining savdo tarmog'idagi o'zgarishlar, hajm ko'rsatkichlari va iqtisodiy faollik darajasi o'rganildi. Navoiy viloyatida chakana va ulgurji savdo sohalarining 2025-yil holatidagi rivojlanish tendensiyalari statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Savdo aylanmasi hajmi, hududlar bo'yicha o'sish sur'atlari hamda iqtisodiy omillar o'rganilgan. Shuningdek, viloyat savdo infratuzilmasining rivoji va kichik biznesning o'rni alohida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: chakana savdo, ulgurji savdo, iqtisodiy o'sish, Navoiy viloyati, statistika, tadbirkorlik, infratuzilma.

Аннотация: В статье анализируется состояние развития и динамика роста секторов розничной и оптовой торговли в Навойском регионе в период с 2021 по 2025 год. В исследовании рассматриваются изменения в торговой экономике региона, объемы оборота и уровни экономической активности. На

основе статистических данных определены тенденции развития розничной и оптовой торговли по состоянию на 2025 год.

Ключевые слова: розничная торговля, оптовая торговля, экономический рост, Навоийская область, статистика, предпринимательство.


Abstract:

Key factors include trade turnover volume, regional growth rates, and economic influences. Additionally, the development of trade infrastructure and the role of small businesses in the trade sector are thoroughly analyzed, highlighting their positive impact on the region's sustainable growth and economic development.

Key words: retail trade, wholesale trade, economic growth, Navoi region, statistics, entrepreneurship, infrastructure.

Navoiy viloyati iqtisodiyoti so'nggi yillarda barqaror o'sishni namoyon etib, ichki iste'mol bozori va savdo tarmoqlarining rivojida ijobiy natijalar kuzatilmoqda.

2025-yilgi statistik ma'lumotlar viloyatda savdo sohasining o'sish sur'atlari yuqori darajada ekanligini ko'rsatmoqda.



Yuqoridagi diagrammada Navoiy viloyatida 2021–2025 yillar oralig'ida chakana savdo hajmining o'sish tendensiyasi aks etgan.

2021 yilda chakana savdo hajmi taxminan 8,5 trillion so'm atrofida bo'lgan.

2022 yilda o'sish kuzatilib, hajm 9,6 trillion so'm ga yetgan.

2023 yilda bu ko'rsatkich 12 trillion so'mni tashkil etgan — bu sezilarli o'sish davri.

2024 yilda iqtisodiy faollik ortib, hajm 13,1 trillion so'mga yetgan.

2025 yilda esa chakana savdo 14,3 trillion so'm atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Umuman olganda, 2021–2025 yillar davomida o'sish sur'ati 65 % dan ortiq, bu esa Navoiy viloyatida ichki bozor kengaygani, tadbirkorlik subyektlari soni ortgani va aholi xarid qobiliyati oshganini ko'rsatadi.

Viloyat bo'yicha 2025-yil birinchi choragida ulgurji savdo o'sish sur'atlari ham yuqori bo'ldi. Navoiy shahrida 124,3 %, Qiziltepa tumanida 119,1 %, boshqa hududlarda esa 100 % atrofida o'sish qayd etilgan. Ulgurji savdo hajmining o'sish sur'atlari (2025 yil, %)

Chakana savdo ko'rsatkichlari 2025-yilning yanvar–mart oylarida Navoiy viloyatida chakana tovar aylanmasi 3 247,3 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 108,4 % ga oshgan (navstat.uz, mart 2025).

Yanvar–sentabr oylariga kelib, bu ko'rsatkich 110,2 % ga yetgan.

Bu o'sish aholining daromadlari oshgani, iste'mol tovarlariga talab ortgani va kichik biznes faoliyatining kengaygani bilan izohlanadi.





Yuqoridagi diagrammada Navoiy viloyatida 2021–2025 yillar oralig'ida ulgurji savdo hajmining o'sish tendensiyasi ko'rsatilgan.

2021 yilda ulgurji savdo hajmi taxminan 14,5 trillion so'mni tashkil etgan.

2022 yilda hajm 15,8 trillion so'mga yetib, o'sish boshlangan.

2023 yilda ko'rsatkich 17,5 trillion so'mga ko'tarilgan.

2024 yilda ulgurji savdo hajmi 19,2 trillion so'mni tashkil etgan — bu yuqori iqtisodiy faollik davri.

2025 yilda esa hajm 21 trillion so'm atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Umuman, 2021–2025 yillar oralig'ida ulgurji savdo hajmi taxminan 45 % ga o'sgan. Bu o'sish ishlab chiqarish korxonalari sonining ortishi, logistika tarmoqlarining kengayishi, va ichki hamda tashqi bozorlar bilan aloqalarning mustahkamlanishi bilan izohlanadi.

Hududlar	o'sish	
	sur'ati, % da	Izoh



➤ Navoiy	124,3	Eng yuqori o'sish ko'rsatkichi
➤ Zarafshon	102,8	Barqaror o'sish
➤ Karmana	99,5	Biroz pasayish
➤ Konimex	98,7	Pasayish kuzatilgan
➤ Qiziltepa	119,1	Faol savdo markazlaridan biri
➤ Navbahor	81,4	Eng past o'sish darajasi
➤ Nurota	4,9 m	Barqaror savdo
➤ Tomdi	100,5	---
➤ Uchquduq	100,4	—
➤ Xatirchi	100,4	—

Viloyatda ulgurji savdo aylanmasi ham sezilarli o'sish sur'atlarini namoyon etdi. 2025-yilning birinchi choragida o'sish quyidagicha qayd etilgan (api-portal.gov.uz, aprel 2025):

Hududl	o'sish sur'ati, % da
➤ Navoiy	124,3
➤ Zarafshon	102,8
➤ Karmana	99,5
➤ Qiziltepa	119,1
➤ Navbahor	81,4



Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, savdo faoliyati asosan markaziy hududlarda jamlangan.

2025-yilda xizmatlar sohasi 113,6 % ga o'sdi. Aholi sonining ortishi, tadbirkorlik subyektlarining ko'payishi va iste'mol bozorining kengayishi savdo tarmog'ining barqaror o'sishiga xizmat qilmoqda.

Kichik biznes ulushi savdo sohasida 70 % dan oshgan.

Navoiy viloyatida 2025-yilda chakana va ulgurji savdo sohasi yuqori o'sish sur'atlarini saqlab qoldi. Viloyat markazi va yirik tumanlarda faol savdo muhitining shakllanishi iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Tavsiyalar:

1. Past o'sish qayd etilgan tumanlarda infratuzilmani yaxshilash.
2. Elektron savdo platformalarini kengaytirish.
3. Kichik biznes uchun soliq va kredit imtiyozlarini oshirish.
4. Logistika va transport tizimlarini modernizatsiya qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.
"Navoiy viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari (2021–2025-yillar)" — navstat.uz rasmiy sayti ma'lumotlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
"Hududiy savdo va xizmatlar sohasining rivojlanish tendensiyalari" — www.mf.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ–4887-son qarori.
"Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va ichki bozorni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida."

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrda PF–285-son farmoni.

“2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.”

5. Davlat statistika qo'mitasi.

“O'zbekiston Respublikasida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi (yillar bo'yicha statistik to'plam).” — Toshkent, 2024.

6. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi.

“Hududiy savdo faoliyatining rivojlanish istiqbollari” — www.miit.uz.